


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilda Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 65 781,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,5 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 110,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,2 % ga yetdi.

2023- yilda Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mird. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2022- yil	2023- yil	
I. YAHM, jami	56 315,9	65 781,0	105,5
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	54 561,5	64 160,3	105,4
mahsulotlarga sof soliqlar	1 754,4	1 620,7	108,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	54 561,5	64 160,3	105,4
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19 474,8	22 746,2	103,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	14 399,8	17 295,5	107,5
sanoat	10 769,5	13 005,3	106,2
qurilish	3 630,3	4 290,2	111,6
xizmatlar	20 686,9	24 118,6	105,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 081,6	5 034,3	111,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 196,7	3 911,3	112,7
boshqa xizmat tarmoqlari	13 408,6	15 173,0	101,6

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16 367,9 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 3,3 % ga yuqoridir.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilga nisbatan % hisobida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,9	97,5
mahsulotlarga sof soliqlar	3,1	2,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	35,7	35,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26,4	27,0
sanoat	19,7	20,3
qurilish	6,7	6,7
xizmatlar	37,9	37,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,5	7,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,9	6,1
boshqa xizmat tarmoqlari	24,5	23,6

2023- yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 97,5 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,5 %ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 35,5 %ni, sanoat tarmog'i 20,3 %ni, qurilish 6,7 %ni va xizmatlar sohasi 37,5 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



35,7%

Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi

3,1%

19,7%

Sanoat

6,7%

Qurilish

37,9%

Xizmatlar

2023- yil

Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi

35,5%

Sanoat

20,3%

Qurilish

6,7%

Xizmatlar

37,5%

2,5%




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmogi 1,4 f.p. (2022-yilda – 1,7 f.p.), sanoat tarmogi – 1,2 f.p. (2022-yilda – 0,9 f.p.), qurilish tarmogi – 0,7 f.p. (2022-yilda – 0,9 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,9 f.p. (2022-yilda – 1,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2022-yilda – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.

2023- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2023- yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 35,5 %), sanoatda – 106,2 % (20,3%), qurilishda – 111,6 % (6,7 %), xizmatlar sohasida – 105,3 % ni (37,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,3 % (7,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,7 % (6,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,6 % dan (23,6 %) iborat bo'ldi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)

2022- y.

2023- y.



5,5 %

YAHM

5,5 %



4,9 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

3,9 %



4,5 %

Sanoat

6,2 %



13,8 %

Qurilish

11,6 %



4,8 %

Xizmatlar


5,3 %

2023- yilda YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 110,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 113,8 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 112,4 % qayd etildi.

**YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)**

2022- y.

2023- y.



2023- yilda kichik tadbirkorlik 44 609,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2022- yilda – 37 598,4 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 69,5 % ni (2022- yilda – 68,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

